o‘zgarishlar ta’lim jarayonini yanada samarali, shaxsiylashtirilgan va o‘zaro faoliyatga asoslangan qiladi. Sun’iy intellekt ta’limda bir qator usullarni taklif etadi, jumladan, o‘quvchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga mos ravishda ta’limni moslashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ta’lim jarayonini yanada samarali boshqarish. Sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi roli, avvalo, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish bilan bog‘liqdir. Masalan, adaptiv o‘quv tizimlari sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning ko‘nikmalarini va bilish darajasini baholaydigan dasturlarni ishlab chiqadi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt orqali o‘quv jarayonini avtomatlashtirish mumkin. Masalan, virtual assistentlar va chatbotlar orqali o‘quvchilar savollariga tezkor javoblar olishlari mumkin. Bu esa o‘qituvchilarning ish yukini kamaytiradi va ularga o‘z faoliyatlariga ko‘proq e’tibor berish imkonini beradi. Sun’iy intellektning ushbu qo‘shimcha imkoniyatlari ta’lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Ushbu vositalar o‘qituvchiga darslarni qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi. O‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi ortadi [2;457-b.].

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni muntazam qo‘llaydigan o‘qituvchilarning dars samaradorligi 25–30 foizga ortadi. O‘quvchilarning fanlarga qiziqishi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari kuchayadi. Misol uchun, elektron doska yordamida dars o‘tilganda o‘quvchilar vizual ma’lumotlarni 60% gacha eslab qolishadi (an’anaviy darsda bu ko‘rsatkich 30–35% atrofida). Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchilik salohiyatini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. U nafaqat o‘qituvchining kasbiy mahoratini, balki o‘quvchilarning intellektual va ijodiy faoliyatini ham rivojlantiradi. Shu bois har bir o‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni egallash, o‘z darslarini raqamli vositalar asosida tashkil etish va o‘z ustida muntazam ishlashga intilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. Toshkent, 2020.

(2). Karimova S.M. Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari. Toshkent, TDPU, 2021, 128-bet.

(3). Rahimov B.H. Zamonaviy ta’limda innovatsion yondashuvlar. Samarqand, SamDU, 2022, 156-bet.

(4). To‘xtayeva D. Pedagogik mahorat va o‘qituvchilik salohiyati. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2020, 224-bet.

(5). UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Paris, 2018, 128 p.

(6). Begmatov E. Zamonaviy ta’limda raqamli madaniyat. Toshkent, 2023.

(7). Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2003, 174-bet.

(8). O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi (Nyu-York shahri, 2017-yil 19-sentabr). “Xalq so‘zi”, 2017-yil 20-sentabr, № 189 (6883.

(9). Xodjayeva N.M. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ularning qo‘llanilishi. Toshkent, O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020, 312-bet.

(10). Hennessey B. and T.Amabile (2010), “Creativity”, Annual Review of Psychology, vol. 61, pp. 569–598.

Ergashev Otabek Xasanovich (Termiz davlat Pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi; E-mail: otabek.xasanov@mail.ru)

IMOM MOTURIDIY MEROSI ASOSIDA TALABALARDA RADIKALLASHUVGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kalom ta’limotining yirik namoyandalaridan biri, moturidiylik aqida maktabining asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiy merosining pedagogik asoslari tahlil qilingan. Alloma ma’naviy merosi asosida talaba-yoshlarda turli yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan. Shuningdek, Imom Moturiduy merosining bugungi kundagi ahamiyati alloma asarlari vositasida dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *Imom Moturidiy, kalom maktabi, aqida, moturidiylik maktabi, talaba-yoshlar, yot g’oyalar, radikallashuv, mafluraviy immunitet.*

Эргашев Отабек Хасанович (Независимый исследователь Термезского государственного педагогического института; E-mail: otabek.xasanov@mail.ru)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА СТУДЕНТОВ К РАДИКАЛИЗАЦИИ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ ИМАМА МОТУРИДИ

Аннотация. *В данной статье проанализированы педагогические основы духовного наследия Имама Абу Мансура Матуриди – одного из крупнейших представителей каламской школы и основателя матуридитской школы вероучения. С научной точки зрения обоснованы механизмы формирования у студенческой молодежи идеологического иммунитета против различных чуждых и ради-*

кальных идей на основе духовного наследия мыслителя. Также посредством анализа трудов Имама Матуриди раскрывается актуальность его наследия в современных условиях.

Ключевые слова: *Имам Матуриди, каламская школа, акыда, матуридитская школа, студенческая молодежь, чуждые идеи, радикализация, идеологический иммунитет.*

Ergashev Otabek Xasanovich (Independent Researcher at Termez State Pedagogical Institute; E-mail: otabek.xasanov@mail.ru)

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' IMMUNITY AGAINST RADICALIZATION BASED ON THE LEGACY OF IMAM MATURIDI

Annotation. *This article analyzes the pedagogical foundations of the spiritual heritage of Imam Abu Mansur al-Maturidi, one of the prominent representatives of the kalam school and the founder of the Maturidi school of creed. From a scientific perspective, the mechanisms for forming ideological immunity among students against various alien and radical ideas are substantiated on the basis of the scholar's spiritual legacy. In addition, the contemporary relevance of Imam Maturidi's heritage is demonstrated through an analysis of his works.*

Keywords: *Imam Maturidi, kalam school, creed (aqidah), Maturidi school, students, alien ideas, radicalization, ideological immunity.*

Kirish (Introduction). Bugungi globallashuv davrida turli yot oqimlar, mutaassib guruhlar tomonidan, asosan, diniy sohadan yetarli darajada xabardor bo'lmagan yoshlarning ongini zaharlash, diniy tushunchalarni noto'g'ri talqin qilish orqali ulardan o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda qurol sifatida foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatdagi bag'rikenglik muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yoshlarimizning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu kabi radikal oqimlar tomonidan olib borilayotgan axborot xurujiga qarshi kurashishda talaba-yoshlarimizni allomalarimizning boy ma'naviy merosi, ibratli hayot yo'li asosida tarbiyalash, ularning umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan asarlari asosida talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish zamon talabi hisoblanadi. Movarounnahr zaminida yashab ijod qilgan, o'z merosi asosida musulmon sivilizatsiyasi tarixida yuzaga kelgan turli radikal oqimlarga qarshi kurashgan mana shunday allomalardan biri Imom Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Imom Moturidiy hayoti va ilmiy-pedagogik qarashlari hozirgi kunga qadar bir qator mahalliy va xorijiy olim-tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, sharqshunoslik an'analari doirasida G'arbiy Yevropada Imom Moturidiy haqidagi birinchi mustaqil monografiya Ulrix Rudolf tomonidan yozilgan. Uning "Al-Maturidi und die Sunni tische Theologie in Samarkand" ("Al-Moturidiy va Samarqanddagi sunniy kalom maktabi") asari G'arb ilmiy doiralariga moturidiylik ta'limotini har tomonlama tanishtirgan eng muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi [4]. Aynan shu tadqiqotdan so'ng G'arbda moturidiylik ta'limotiga bag'ishlangan tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshdi. Boshqa bir nemis olimi Angelika Brodersenning "Der unbekannte Kalam" ("Noma'lum kalom") asarida esa moturidiylik maktabi vakillarining ilmiy-ma'rifiy qarashlari o'zaro qiyoslangan [2]. Turkiyada Imom Moturidiy merosiga qiziqish katta bo'lib, bugungi kunga qadar bir qator turk olimlari alloma ilmiy merosiga bag'ishlangan kitoblar, monografiyalar va ilmiy maqolalar yozganlar. Xususan, turk olimi So'nmaz Kutlu tomonidan nashrga tayyorlangan "Imom Moturidiy va moturidiylik" kitobi dunyoda moturidiyshunoslik sohasida olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Imom Moturidiy ma'naviy merosi asosida talabalarda radikallashuvga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik mexanizmlariga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning pedagogika sohasida qo'llaniladigan analogik tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Radikallashuv – bu individning turli yot mafkuralarga moyil bo'lish jarayoni bo'lib, bu jarayon ko'pincha ijtimoiy izolyatsiya, o'ziga xoslikni izlash, o'ziga tegishlilik hissining yo'qligi va mafkuraviy manipulyatsiya tufayli yuzaga keladi. Radikal kontent, ayniqsa, raqamli muhitda tarqatiladigan, yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir qilishi va ularni radikal guruhlarga yo'naltirishi mumkin bo'lgan axborotlar majmuasidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'rifat va axloqiy ta'lim yoshlarni radikal mafkuralarga nisbatan immunitetini shakllantirishdagi asosiy vositalar hisoblanadi.

Talabalarda radikalizmga qarshi pedagogik choralar ham individual, ham ijtimoiy darajada amalga oshirilishi kerak. Shaxsiy darajada talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va o'z qadriyatlari rivojlantirib borish qobiliyatini shakllantirish kerak. Ijtimoiy darajada talaba-yoshlarni turli nuqtai nazarlarga hurmat, bag'rikenglik va muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishga undash maqsadga muvofiq [6;29-b.].

Bugungi kunda talaba-yoshlar orasida radikal oqimlarga moyillik holatlarining kuzatilayotganligi global ijtimoiy va psixologik muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Texnologik taraqqiyotning tez sur'atlar bilan o'sishi, ijtimoiy media va raqamli platformalar orqali mafkuraviy xurujlarning tarqalishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xatti-harakatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, o'smirlik va yoshlik davrida shaxslar o'ziga xoslikni izlash, o'ziga tegishlilik hissi va ijtimoiy qabul qilinishga ehtiyoj kabi psixosotsial jarayonlarga duch keladilar. Bu jarayonlarda yetarli bo'lmagan ta'lim, salbiy ijtimoiy muhit va mafkuraviy manipulyatsiya yoshlarni radikal g'oyalar va xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim muassasalari talabalarning akademik va ma'naviy jihatdan yaxshi tayyorlanganligini, qadriyatlarga sodiqlik ruhini mustahkamlashini va radikal xurujlarga qarshi turishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Pedagogik yondashuvlar va metodologiyalar talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish va mutaassiblikka yo'g'rilgan fikrlarga qarshi xabardorlikni oshirishning asosiy vositalari hisoblanadi [7;129-b.].

Islom tafakkuri tarixida muhim shaxslardan bo'lgan alloma Imom Moturidiy o'zining bag'rikenglikka asoslangan g'oyalari, "Ta'vilot al-Qur'on", "Kitob at-tavhid" kabi asarlari orqali turli yot oqimlarga qarshi kurash olib borgan. Alloma ma'naviy merosi, shu jihatdan, aql, iymon va axloqiy qadriyatlarga oqilona yondashib, yoshlar orasida radikal oqimlarga qarshi xabardorlikni oshirish uchun muhim pedagogik manba hisoblanadi. Imom Moturidiy merosi bugungi yosh avlodni tarbiyalash jarayonida nafaqat diniy fanlar, balki pedagogika va ta'lim-tarbiya sohasida ham qo'llash mumkin bo'lgan ilg'or usullarni taklif etadi. Uning yondashuvi aql va iymon o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi va shaxslarning o'z diniy tushunchalarini, axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy mas'uliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi [1;33-b.].

Allomaning aql va iymon o'rtasidagi munosabatlarga qaratilgan ta'limoti radikalizm va yot oqimlarga qarshi mustahkam intellektual va ma'naviy asos yaratadi. Imom Moturidiyning pedagogik merosi talaba-yoshlarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni qabul qilish va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir [3;49-b.].

Imom Moturidiyning ilmiy-pedagogik qarashlari uchta asosiy elementni o'z ichiga oladi:

Aql va iymon o'rtasidagi muvozanat: Allomaning fikriga ko'ra, aql iymon va ibodat yo'lida yo'lboshchi hisoblanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, bu talabalarga diniy bilimlarni tanqidiy tahlil orqali tushunish va radikal xurujlarga qarshi immunitetni shakllantirish imkonini beradi. Aql nafaqat nazariy fikrlash vositasi, balki shaxsning ma'naviy rivojlanishida ham markaziy rol o'ynaydi.

O'rta yo'l, ya'ni mutaassiblashuvdan saqlanish. Imom Moturidiy mutaassiblashuvdan saqlanish va diniy tushunchalarda muvozanatni saqlashga alohida urg'u beradi. Ushbu pedagogik yondashuv talabalarning radikal g'oyalar va xatti-harakatlar ta'siriga tushishiga to'sqinlik qiladi, buning natijasida ularda muvozanatli diniy ong rivojlanadi.

Ijtimoiy va axloqiy ong. Talabalarda mehr-shafqat, adolat, mas'uliyat va ijtimoiy foyda kabi qadriyatlarni singdirish radikal xurujlarga qarshi immunitetni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Axloqiy va ma'naviy ta'lim talabalarga o'z xatti-harakatlari va qarorlarini ijtimoiy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi [6;11-b.].

Imom Moturidiy ta'limoti zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan birlashtirilganda, talaba-yoshlarning radikal mafkuraviy xurujlarga qarshi immunitetini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi. Aql va e'tiqod o'rtasidagi muvozanatga asoslangan pedagogik yondashuvlar esa talabalarga tashqi radikal ta'sirlarga qarshi kurasha olish ko'nikmasini shakllantiradi [7;103-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Imom Moturidiyning ma'naviy merosi talabalarda pedagogik nuqtai nazardan radikalizmga qarshi immunitetni rivojlantirish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Uning aql, e'tiqod va axloq o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydigan qarashlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham turli adashgan oqimlar, diniy tushunchalarni noto'g'ri talqin qiluvchi g'oyalarga qarshi kurashda muhim vositalardan biridir. Talabalarda radikalizmga qarshi immunitetni shakllantirish faqat diniy tushunchalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmaydi, bu axloqiy qadriyatlarni singdirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy mas'uliyat hissini tarbiyalash orqali paydo bo'ladigan uzoq bosqichli jarayon natijasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Imom Moturidiy merosi ta'lim tizimiga ham nazariy, ham amaliy pedagogik usullar orqali joriy qilinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Bekir Topaloğlu. Kelam ilmi: giriş. Istanbul, Damla Yayınevi, 1991, 432 s.

(2). Brodersen A. Der unbekannte kalam. Theologische Positionen der frühen Maturidiya am Beispiel der Attributenlehre. Münster, Lit Verlag, 2014.

(3). Oqilov S. Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosi va moturidiya ta'limoti. Monografiya, Toshkent, "Hilol-nashr", 2017, 240-bet.
(4). Rudolph U. Al-Maturidi und die Sunnitische Theologie in Samarkand. Leiden–New York–Köln: E.J.Brill, 1997.
(5). Sönmez Kutlu. İmam Maturidi ve Maturidilik. Ankara, "Kitabiyat", 2005, 464 s.
(6). Uvatov U. Imom Moturidiy va uning ta'limoti. Toshkent, "Fan", 2000, 48-bet.
(7). Ziyodov Sh. Abu Mansur al-Moturidiy yozma merosi va uning "Kitob at-Ta'vilot ahli-s-sunna" asari. Tarix fan. nomz… diss., Toshkent, O'zR FASHI, 2003, 154-bet.

Baxtiyarova Zebiniso Komilovna (Ma'mun universiteti Filologiya fakulteti "O'zbek va sharq tillari" kafedrasi o'qituvchisi; zebiniso.kamilovna@gmail.com),
Adambayeva Feruza Rustambekovna (Urganch davlat universiteti "Fakultetlararo chet tillari" kafedrasi katta o'qituvchisi; adambaeva.feruza@urdu.uz)

O'RTA TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNING BAHOLARI VA TARBIYAVIY JIHATLARINI MONITORING QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'rta ta'lim tizimidagi baholash sistemasini monitoring qilishni takomillashtirish uchun ishlab chiqayotgan pltaformamiz va uning afzalliklari, ishlash sistemasiga bag'ishlangan. Bu platforma har o'rta ta'lim maktabi uchun alohida ishlab chiqiladi va rozilik bildirgan maktablar va undagi o'quvchilarning ota-onalari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Platformada umumiy holda baholardan tashqari, tarbiyaviy jihatlari va qiziqishlari ham baholanib borilishi ko'zda tutilgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, mobil ilova, ta'lim sistemasi, shaxsiy qiziqish, monitoring.*

УЛУЧШЕНИЕ МОНИТОРИНГА ОЦЕНОК УЧАЩИХСЯ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ АСПЕКТОВ В СИСТЕМЕ СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *Данная статья посвящена платформе, которую мы разрабатываем для совершенствования мониторинга системы оценки в системе среднего образования, её преимуществам и системе функционирования. Эта платформа будет разработана отдельно для каждой средней школы и внедрена по согласованию со школами, давшими согласие, и родителями учащихся. Помимо оценок, платформа предназначена для оценки образовательных аспектов и интересов.*

Ключевые слова: *образование, мобильное приложение, образовательная система, личный интерес, мониторинг.*

IMPROVING MONITORING OF STUDENT GRADES AND EDUCATIONAL ASPECTS IN THE SECONDARY EDUCATION SYSTEM

Annotation. *This article is devoted to the platform we are developing to improve the monitoring of the assessment system in the secondary education system, its advantages, and the system of its operation. This platform will be developed separately for each secondary school and will be implemented in consultation with the schools that have given their consent and the parents of the students in it. In addition to general grades, the platform also provides for the assessment of educational aspects and interests.*

Keywords: *education, mobile application, educational system, personal interest, monitoring*

Kirish. Har bir mamlakat o'z ta'lim tizimini o'zining ichki siyosati va strategiyalari asosida amalga oshiradi, jumladan, bizning mamlakatimizda ham ta'lim tizimi bir necha bosqichda tashkil etilgan. Bizning asosiy maqsadimiz o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning bilimlarini baholash va monitoring qilish, shuningdek, ularning axloqi, qiziqishlari va shaxsiy rivojlanishi kabi jihatlarni monitoring qilish texnologiyasini ishlab chiqishdir.

Mavzuga tegishli adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda mamlakatimizda 10 000 dan ortiq o'rta umumiy ta'lim maktablari, 14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijodiy maktab va 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritmoqda. Ularda o'quvchilarning umumiy soni, taxminan, 6,4 millionni tashkil etadi [1]. O'quvchilar sonining juda ko'pligi nafaqat ularning ta'limiga, balki tarbiyasiga ham jiddiy yondashish zarurligini ko'rsatadi. O'quvchilar uchun, asosan, 2 ta ta'lim manbayi mavjud: o'quvchining ota-onasi va maktabdagi o'qituvchilar. o'quvchining ta'limiga ta'sir qiluvchi boshqa jihatlarga yuqoridagi ikkita sabab ta'sir qila olmaydi [2;4-b.]. Jahon tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, ta'limni monitoring qilish turli mamlakatlarda turli yo'llar bilan amalga oshiriladi va buning uchun turli platformalar ishlab chiqilgan. Ta'limda o'quvchilarning baholarini monitoring qilish masalasi ham turli mamlakatlarda farq qiladi, masalan, bizning mamlakatimizda 1 dan 5 gacha bo'lgan baholash tizimi qo'llaniladi, bu yerda 1 eng yomon va 5 eng yaxshi baho, Chexiyada esa 5 eng yomon va 1 eng yaxshi baho [5;7-b.]. Baholash turli tizimlarda amalga oshirilishi mumkin, ammo o'quvchining shaxsiy rivojlanishini, qaysi darslarda o'zini qanday tutishini va axloqini